

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI YURIDIK FANLAR BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.31/31.10.2024Yu.186.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

SHUKUROVA MUHAYYO MUKUMJANOVNA

**HOKIMIYAT HARAKATSIZLIGI: JINOYAT-HUQUQIY
VA KRIMINOLOGIK JIHATLAR**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Shukurova Muhayo Mukumjanovna

Hokimiyat harakatsizligi: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar 5

Шукурова Мухайё Мукумжановна

Бездействие власти: уголовно-правовые и криминологические аспекты 45

Shukurova Mukhayo Mukumzhanovna

Government inaction: criminal law and criminological aspects.....26

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI YURIDIK FANLAR BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.31/31.10.2024Yu.186.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

SHUKUROVA MUHAYYO MUKUMJANOVNA

**HOKIMIYAT HARAKATSIZLIGI: JINOYAT-HUQUQIY
VA KRIMINOLOGIK JIHATLAR**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati 3 tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://kti.iiv.uz/>) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori;

Turg‘unboyev Elbekjon Odiljonovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti huzuridagi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.31/31.10.2024Yu.186.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-aprel kuni soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy. Tel. +99871 231-35-97; e-mail: info@uzkti.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№AD 001 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy. +99871 231-35-97).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30-mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 30-martdagi 01-raqamli reyestri bayonnomasi).

B.B. Murodov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori (DSc)
professor

B.A. Yarov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlar nomzodi

B.A. Saidov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mansabdor shaxslar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmasliklari oqibatida fuqarolarga yetkazilayotgan moddiy zarar hamda bunday harakatsizliklar tufayli yo'l qo'yilayotgan jinoyatlar soni ortib bormoqda. Xususan, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining 2023-yilgi hisobotida keltirilishicha, dunyoda har bir soatda taxminan 200 mingta jinoyat sodir etiladi. O'tgan yil davomida esa 450 mln. jinoyat sodir etilganligi ro'yxatga olingan¹. O'z navbatida bunga jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tuzilmalarning zamon talablariga javob bermayotganligi, ularning mansabdor shaxslari o'z xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi va xizmat manfaatlariga zid shaxsiy manfaatdorligining ortib borishi sabab bo'lmoqda. Bu esa mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilishning zamonaviy usullari va jinoyatlarga imkon berayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etishning tashkiliy chorlari hamda hokimiyat harakatsizligiga qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini taqozo etadi.

Jahonda hokimiyat harakatsizligi jinoyatiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish, uning sabab va sharoitlarini o'rganish hamda mansabdor shaxslarni qonuniylik va xizmat intizomiga qat'iy rioya etishlari, fuqarolar va tashkilotlar tomonidan ularga rioya etilishini ta'minlashlari, jinoyatlarga yo'l qo'yilishi uchun javobgarlik masalalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, olib borilgan tadqiqotlar natijasida mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirishga hamda ularning oldini olish metodikalarini ishlab chiqish borasida ma'lum natijalarga erishilgan. Biroq shunga qaramasdan bugungi zamonaviy sharoitlar hokimiyat harakatsizligiga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda o'rganish, bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning yechimini topish, hokimiyat harakatsizligiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Jumladan, davlat hokimiyati boshqaruvini raqamlashtirish, ochiqligini ta'minlash, ular zimmasiga yuklanadigan asosiy funktsiya va vazifalarini belgilash hamda mansabdor shaxslarning xizmat majburiyatlarini tartibga solishga oid qonunchilik takomillashtirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi²da fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish hamda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligining ishonchli kafolatini

¹ https://www.unodc.org/roca/uploads/documents/2024/Annual_Report_2023/ROCA_AR_2023_RU_web.pdf

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги ПҚ-3723-сонли қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини тақомиллаштириш концепцияси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.05.2018 й., 07/18/3723/1225-сон, 01.10.2018 й., 06/18/5547/1975-сон.

ta'minlash masalalari jinoyat qonunini takomillashtirishning asosiy vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilovchi qonun normalarini, huquqni qo'llash amaliyotini va ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi 2014-yil 5-may O'RQ-369-son, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2014-yil 14-may O'RQ-371-son, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017-yil 3-yanvar O'RQ-419-son qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-may PQ-3723-son qarori, "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 29-iyun PF-6013-son, "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 6-iyul PF-6257-son, "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 20-yanvar PF-60-son, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabr PF-158-son farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari funksiyalarining ochiq reyestrini yuritish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 29-noyabr 796-son qarori hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta'minlashga ushbu tadqiqot ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy jihatlarini o'rganish, shuningdek, uning oldini olish respublikamizda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur masalaning ayrim jihatlari B.J. Axrorov, A.A. Otajonov, Q.R. Abdurasulova, R.A. Zufarov, R. Kabulov, M.M. Kadirov, M.X. Rustambayev, G'.O. Ermatov, E.X. Narbutayev kabi huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy ishlarida o'rganilgan.

MDHga a'zo mamlakatlar olimlaridan Y.N. Borkov, V.P. Bojev, V.N. Galuzo, O.V. Izotova, N.N. Kovtun, N.A. Kolokolov, V.A. Lazareva, N.G. Lopuxina, L.N. Maslennikova, T.G. Morshakova, I.L. Petruhin, A.V. Colodilov, A.P. Fokov, G.P. Ximicheva, N.M. Chepurnova, L.V. Golovko, P.A. Lusenko, A.I. Boyko, A.Y. Asnis, I.A. Yesipova va boshqalar tomonidan hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarining ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan U. Blekston, A. Gyunter, D. Torsello, L.L. Anaian, Oygen Dimant va boshqalar tomonidan hokimiyat harakatsizligining o'ziga xos jihatlari

o'rganilgan³. Biroq mamlakatimizda hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari kompleks tarzda alohida monografik tadqiqot darajasida ko'rib chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning 2021 – 2026-yillarga mo'ljallangan istiqbolli dasturining “O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari kompleks o'rganish asosida aniqlangan muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hokimiyat harakatsizligi uchun jinoiy javobgarlikning retrospektiv tahlili hamda javobgarlik muammolariga doir ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy holati va rivojlanishini tahlil qilish;

hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilangan ayrim xorijiy davlatlar Jinoyat kodeksi normalarining qiyosiy tahlilini ko'rib chiqish;

hokimiyat harakatsizligining obyektiv belgilarini tahlil qilish;

hokimiyat harakatsizligining subyektiv belgilarini tahlil qilish;

hokimiyat harakatsizligi jinoyatini kvalifikatsiya qilish va o'xshash jinoyatlardan farqlarini tahlil qilish;

hokimiyat harakatsizligi va uni sodir etgan shaxslarning kriminologik xususiyatlarini tadqiq qilish;

hokimiyat harakatsizligi jinoyatini keltirib chiqaruvchi sabablar va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganish va tahlil qilish;

hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilovchi jinoyat qonuni normalari hamda oldini olish choralarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari belgilovchi ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini boshqaruv sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik choralarini belgilovchi normativ hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi, rasmiy statistika hamda yuridik fandagi mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya va Internet jahon axborot tarmoqlarida joylashtirilgan materiallar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy tadqiqotning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, so'rov o'tkazish, amaliyot materiallarini tahlil qilish va boshqa usullar qo'llanilgan.

³ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko‘rinadi:

hokimiyat harakatsizligi jinoyatini hokimiyat vakolatini suiiste‘mol qilish va xizmatga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatlaridan farqlash ehtiyoji borligi sababli hokimiyat harakatsizligi xizmatga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatidan subyektiv tomoni qasd ekanligi bilan va hokimiyat vakolatini suiiste‘mol qilishdan, bu jinoyat mansabdor shaxsning faqat hokimiyat vakolati doirasida va xizmat vazifasiga ko‘ra qilishi shart bo‘lgan harakatni sodir etmasligi shaklida bo‘lishi mumkinligi bilan farq qilishi asoslantirilgan;

hokimiyat harakatsizligi oqibatlarini bartaraf etish ko‘lamini kengaytirish zaruriyati sababli hokimiyat harakatsizligi jinoyatining subyektlari qatoriga “davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarini” kiritish lozimligi hamda “g‘arazli niyatlarda hokimiyat harakatsizligini sodir qilganlik” uchun javobgarlikni og‘irlashtirish zarurligi asoslantirilgan;

jinoyatlarning barvaqt oldini olish choralarini belgilash zarurligi sababli og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarning muhokamasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi, uncha og‘ir bo‘lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar tuman (shahar) darajasidagi sektorlar hamda davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari tomonidan jamoatchilik vakillari ishtirokida amalga oshirilishi zarurligi asoslantirilgan;

mansabdor shaxslar faoliyati va jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish sababli mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat muhokamalarida tegishli davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari qatnashishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni bilan jinoyatga yo‘l qo‘yganlik uchun javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan;

hokimiyat harakatsizligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yo‘nalishlarini belgilab beradigan “Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori yoki harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini ishlab chiqish va tasdiqlash lozimligi asoslangan;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan funksiyalari, ya‘ni ularning zimmlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini aniq belgilash maqsadida “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari funksiyalarining ochiq reyestrini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqish va tasdiqlash lozimligi asoslangan;

hokimiyat harakatsizligi uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish va uning oldini olish samaradorligini oshirish, boshqaruv va ijro etish tizimini umuman olganda jamiyat daxlsizligi, javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash maqsadida hokimiyat harakatsizligi jinoyatini sodir etganligi uchun sudlangan hamda o‘ziga nisbatan hokimiyat harakatsizligiga oid jinoyat ishi reabilitatsiya asoslarisiz tugatish haqidagi tergov organi qarori va sud ajrimi mavjud bo‘lgan shaxslar elektron bazasini yuritish lozimligi asoslangan;

hokimiyat harakatsizligi jinoyati ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat turiga kirganligi sababli mansabdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda mustaqil modda sifatida qo'llanilmayotganligi uchun hokimiyat harakatsizligi jinoyati dispozitsiyasini aniqlab belgilash zarurligi asoslangan;

davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslarining xizmat yo'riqnomasida amalda bajarayotgan majburiyatlarining huquqiy asos sifatida to'liq tasdiqlanmaganligi hamda asosiy vazifasidan tashqari qo'shimcha yuklamalarning ko'pligi sababli lavozim yo'riqnomalarini elektron yangilanib turish tizimini ishga tushirish zaruriyati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti va sotsiologik so'rov (50 nafar sudyalari, 165 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, 110 nafar professor-o'qituvchilar, 185 nafar advokatlar o'rtasida) natijalari, statistik ma'lumotlar va 110 ta sud hukmlari tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Jinoyat huquqi" va "Kriminologiya" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi, tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati uning asosida olingan taklif va tavsiyalardan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq qonun ijodkorligi jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda, oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat-huquqiy fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

hokimiyat harakatsizligini xizmatga sovuqqonlik bilan qarash, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishdan farqlash borasidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 21-noyabrdagi "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 22-son qarorining 58-bandi beshinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 19-dekabrda 03-23-1051-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklif qilmishni jinoyat sifatida baholash, boshqa turdagi o'xshash jinoyatlardan farqlash, to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qiladi;

hokimiyat harakatsizligi jinoyatining subyektlari qatoriga "davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarini" kiritish hamda "g'arazli niyatlarda hokimiyat harakatsizligini sodir qilganlik uchun javobgarlikni og'irlashtirish lozim"ligi haqidagi taklifidan O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksi

loyihasining 300-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 3-yanvardagi 27/2-1/24-son dalolatnomasi). Ushbu taklif hokimiyat harakatsizligi uchun jinoiy javobgarlik va jazo samaradorligini oshirish va ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi;

og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhokamasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi, uncha og‘ir bo‘lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar tuman (shahar) darajasidagi sektorlar hamda davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari tomonidan jamoatchilik vakillari ishtirokida amalga oshirilishi zarurligi to‘g‘risidagi taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentabrdagi “Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 565-son qarorining 3-bandi “b” qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-sentabrdagi 12-15-71-son dalolatnomasi). Ushbu taklif jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish jarayonlarida tuman (shahar) darajasidagi sektorlar hamda davlat organlari va tashkilotlar rahbarlari ishtirokini ta’minlanishiga xizmat qiladi;

jinoyat muhokamalarida tegishli davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari qatnashishi mumkin degan taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-sentabrdagi 565-son qarori bilan tasdiqlangan Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 8-bandi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-sentabrdagi 12-15-71-son dalolatnomasi). Ushbu taklif jinoyat muhokamalarida tegishli davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda jamoatchilik vakillari qatnashishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 8 ta ilmiy maqola (shundan 1 tasi xorijiy nashrlarda) va 4 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksi normalarining zamonaviy va retrospektiv tahlili”** deb nomlanib, hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilashning retrospektiv tahlili va javobgarlik muammolariga doir ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy holati, rivojlanishi hamda xorijiy davlatlar qonunchiligida hokimiyat harakatsizligi uchun jinoiy javobgarlik masalalari tahliliga bag‘ishlangan.

Tadqiqotchi hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlikni belgilovchi jinoyat qonuni normalarining rivojlanish tarixi bir necha asrlarni qamrab oladi, degan fikrni ilgari surib, uning uchun javobgarlikning rivojlanish tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lgan:

qadimgi davr – professional davlat amaldorlari hali mavjud bo‘lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari, respublika Rimi) mansab mavqeini suiiste‘mol qilgan holda foydalanish deyarli bo‘lmagan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina rim huquqida “*corrumpire*” degan maxsus atama paydo bo‘lgan, u “*buzish*”, “*pora evaziga og‘dirish*” iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqeini suiiste‘mol qilishning har qanday ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan;

davlat va huquqning paydo bo‘lish davri – Avesto, Yaso qonunlari ta’siri bilan belgilanadi. Bu davrda jinoiy qilmishlar alohida bo‘limlarga bo‘lingan, jumladan, mansabdorlik jinoyatlari alohida bo‘lim sifatida o‘rin olib, podsho harbiy yurishida ishtirok etishdan bosh tortgan mansabdor o‘lim jazosiga mahkum etilgan. Shuningdek, armiyada qo‘mondonlik va yuqori lavozimlarni egallagan mansabdorlar ham qo‘l ostidagilardan o‘g‘irlik qilganligi yoki ularga nisbatan yolg‘on guvohlik berganligi (vakolatni suiiste‘mol qilganligi) uchun xuddi shunday jazoga tortilgan;

o‘rta asrlar davrida O‘zbekiston hududida joylashgan davlatlarda qabul qilingan odat huquqi normalari zahirida islom madaniyati prinsiplari asosida shakllangan qonunchilik an‘analari bilan belgilangan. Xususan, Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov o‘tkazib turilgan. O‘z amalini suiiste‘mol qilish, poraxo‘rlilik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuvchilik kabi qilmishlar og‘ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan;

chor Rossiyasi mustamlakachiligi XIX asrning 50-yillari va XX asrning 20-yillari shariat normalari hamda 1922-yildagi Jinoyat kodeksi normalarining amal qilishi davri. Ushbu davrda mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik hamda odil sudlov sohasida xizmatchilarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar paydo bo'ldi;

sobiq Ittifoq davri – 1926 va 1959-yildagi jinoyat qonunlarining amal qilgan va O'zbekistonning 1926-yil 16-iyundagi Jinoyat kodeksining 111-moddasi “hokimiyat harakatsizligi, ya'ni mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat vazifasiga ko'ra bajarishi lozim bo'lgan harakatlarni bajarmasligi” uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Mazkur kodeksdan farqli ravishda 1959-yilgi O'zSSR JKdan o'rin olgan hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik asosan kodeksning “Mansabdorlik jinoyatlari” deb nomlangan oltinchi bobi 151-moddasi xizmatga sovuqqonlik bilan qarash moddasi tarkibiga kiritilgan. Bu kodeks 1994-yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilingunga qadar amalda bo'ldi;

mustaqillik davri – 1994-yildagi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinishi bilan boshlanadi. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida hokimiyat harakatsizligiga jinoiy javobgarlik belgilandi. 1994- yilning 22-sentabrigacha hokimiyat harakatsizligi jinoyat qonunchiligida alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan bo'lib, faol harakatlar bilan bir qatorda xizmatga sovuqqonlik bilan qarashning obyektiv tomoni shakllaridan biri sifatida ko'rilgan.

Tadqiqotchi hokimiyat harakatsizligini ilmiy yondashuvlar, retrospektiv tahlillar asosida tadqiq qilib, bir qator fikr va xulosalarga kelgan. Jumladan, davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatsizligi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar sud qarori asosida qoplanadi. Bunda zarar g'ayriqonuniy qaror qabul qilish orqali emas, balki g'ayriqonuniy harakatsizliklar sodir etish orqali yetkaziladi. Mansabdor shaxslarning harakatsizliklari agarda xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lsa, har doim huquqiy xarakterga ega bo'ladi va huquqiy oqibatlarini vujudga keltiradi.

Dissertantning ta'kidlashicha, “hokimiyat” tushunchasi qadim tarixga ega bo'lib, qadimda ushbu turdagi muammolarni hal etish hamda mansabdor shaxslarning hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlikka tortish amaliyoti mavjud bo'lgan.

Dissertatsiyada hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilangan xorijiy davlatlar Jinoyat kodeksi normalarining tuzilishini *to'rt guruhga* bo'lish mumkinligi asoslanib, *birinchi guruhga* jinoyat qonunining mustaqil normasida hokimiyat harakatsizligi uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik belgilangan davlatlar (Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon, Ukraina, Gruziya va boshq.); *ikkinchi guruhga* jinoyat qonunining bir nechta normalarida hokimiyat harakatsizligi bilan bog'liq qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan davlatlar (Moldova, Armaniston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, AQSH, Angliya va boshq.); *uchinchi guruhga* jinoyat qonunining alohida normasida hokimiyat harakatsizligi uchun mustaqil javobgarlik belgilanmagan, biroq o'z xizmat vakolatlari va

majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilangan davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Avstraliya, Ispaniya, Avstriya, Germaniya, Gollandiya, Shveysariya va boshqa.); *to'rtinchi guruhga* mansub davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Skandinaviya davlatlari – Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvetsiya kabilar) jinoyat qonunining alohida normasida hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik belgilanmagan, balki mansabdor shaxsning xizmat majburiyatlarini qasddan bajarmasligi natijasida fuqarolar va davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Tadqiqotchi xorijiy davlatlarning hokimiyat harakatsizligi jinoyatiga qarshi kurashishga qaratilgan tajribalarini o'rganib, bugungi zamonaviy dunyoda aksariyat xorijiy mamlakatlarda davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat vazifasini qasddan bajarmagan yoki shunday harakatsizliklarga yo'l qo'ygan holda davlat, jamoat tashkilotlari yoxud fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazuvchi harakatsizliklar jinoyat sifatida tan olinganligi va bunda xalqaro hujjatlar talablari hamda davlatlarning milliy manfaatlari hisobga olinganligi, shuningdek, hozirgi sharoitlarda mansabdor shaxslar tomonidan sodir qilinayotgan korrupsiyaviy jinoyatlar ko'lami kengayib, xavfliroq tus olib borayotganligi sababli xorijiy mamlakatlarning hokimiyat harakatsizligiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari tobora kuchaytirilayotganligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot ishida xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi tahlili asosida hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlikning ijobiy xususiyatlarini ifodalovchi quyidagi o'ziga xos belgilari farqlangan:

bu toifadagi jinoyatlar odatda mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat vazifalarini g'arazli, boshqa shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qasddan bajarmasligi (Tojikiston, Ispaniya, Norvegiya, Qozog'iston);

mansabdor shaxs tomonidan harakatsizlik uyushgan guruh, jinoiy uyushma manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa yoki og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, javobgarlikning belgilanishi (Qirg'iziston, Qozog'iston, Armaniston, Turkmaniston);

mansabdor shaxsning xizmat manfaatlariga zid ravishda, g'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatdorlik tufayli, o'z zimmasiga yuklatilgan xizmat majburiyatlariga ko'ra bajarishi lozim va mumkin bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi uchun javobgarlik belgilanishi (Ispaniya, Germaniya, Avstraliya, Armaniston, Belarus);

hokimiyat harakatsizligi mas'uliyatli lavozimni egallagan mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa yoxud og'ir oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik qo'llanilishi (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Moldova, Litva, Turkmaniston);

mansabdor shaxsning harakatsizligi qonun yoki shartnomadan kelib chiqadigan alohida harakat qilish majburiyati mavjud bo'lganda yoki aybdor o'zining oldingi harakati yoki harakatsizligi bilan yuridik himoya qilinadigan huquqni xavf ostiga qo'yganida jinoiy javobgarlikning belgilanishi (Ispaniya, Gollandiya, Germaniya, Fransiya);

mansabdor shaxsning harakatsizligi u yoki bu majburiyatni bajarmaslikka qaratilgan harakatning bir turi sifatida qaralishi (AQSH, Angliya, Fransiya);

hokimiyat harakatsizligi bilan bog'liq jinoyatlar uchun jinoiy va ma'muriy preyuditsiyasi mexanizmlaridan foydalanish (Rossiya Federatsiyasi, Polsha, Bolgariya, Qozog'iston, Moldova, Gruziya);

hokimiyat harakatsizligi bilan bog'liq qilmishlarning bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh tomonidan, xizmat mavqeidan foydalangan holda, shuningdek, zo'ravonlik qo'llash, aldash yo'li bilan sodir etilishi jinoyatning og'irlashtiruvchi holatlari sifatida belgilanishi (Belarus, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Armaniston, Ozarbayjon);

hokimiyat harakatsizligi jinoyati og'ir jinoyatlar toifasiga kiritilganligi (Singapur, Gonkong, Turkmaniston).

Dissertatsiyaning “Hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy tavsifi va kvalifikatsiyasi” deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur hokimiyat harakatsizligi jinoyatining jinoyat-huquqiy tavsifi, hokimiyat harakatsizligi jinoyatining obyektiv va subyektiv belgilarining yuridik tahlili va harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlikning asoslari va chegaralari, kvalifikatsiya qilish va o'xshash jinoyatlardan farqlash jihatlari tahlil qilingan.

Ushbu bobda izlanuvchi hokimiyat harakatsizligining jinoyat-huquqiy ta'rifini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, hokimiyat harakatsizligi deganda, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining normativ hujjatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni qasddan bajarmagan holda davlat, jamoat tashkilotlari yoxud fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazuvchi harakatlar tushuniladi.

Hokimiyat harakatsizligi jinoyatining obyekt sifatida jinoyat orqali zarar yetkaziladigan yoki haqiqiy zarar yetkazish xavfi yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tahlil qilingan. Bunda jinoyatning obyekt ijtimoiy munosabatlar hisoblanishi hamda jinoyat obyektlari an'anaviy tarzda “vertikal” va “gorizontal” yo'nalishda tasniflanishi to'g'risidagi nazariyalar qo'llab-quvvatlangan. Tadqiqot ishida hokimiyat harakatsizligi jinoyati obyektini tasniflashning “vertikal” tasnifga ko'ra to'rt bosqichli tizimidan, ya'ni *umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari*, “gorizontal” tasnifga ko'ra *asosiy bevosita, qo'shimcha bevosita va fakultativ bevosita obyektlarga* ajratish usulidan foydalanilgan.

Hokimiyat harakatsizligi jinoyatining obyektiv tomoni o'z mazmuniga ko'ra faqat harakatsizlikda ifodalanishi tahlil qilingan unga muvofiq mazkur jinoyatda harakatsizlik quyidagilarda namoyon bo'lishi: 1) mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifasi yuzasidan bajarishi shart va mumkin bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi; 2) mansabdor shaxsning jinoyatga yo'l qo'yishi.

Tadqiqotchi tomonidan mansabdor shaxsning qilmishini hokimiyat harakatsizligi deb baholash uchun mansabdor shaxs o'z xizmat vazifasi yuzasidan bajarishi shart va mumkin bo'lgan harakatlarni bajarish uchun real imkoniyatga ega bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlash zarurligi bayon qilingan.

Shuningdek, hokimiyat harakatsizligi jinoyatida harakatsizlikning ikkinchi ko'rinishi mansabdor shaxsning jinoyatga yo'l qo'yishi ekanligi, ya'ni jinoyatga

yo‘l qo‘yish deganda, mansabdor shaxsning bila turib, oldindan va‘da bermagan holda, tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilayotgan ijtimoiy xavfli qilmish (jinoyat)larning oldini olish yoki bartaraf qilish choralarini ko‘rmasligi tushunilishi keltirilgan.

Izlanuvchi tomonidan ko‘rib chiqilayotgan modda dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi mansabdor shaxsni jinoyatga yo‘l qo‘yishi natijasida biror oqibat kelib chiqishi shartligini nazarda tutmaganligi, demak, jinoyatga yo‘l qo‘yish, uning natijasida biror zarar kelib chiqqan-chiqmaganligidan qat’i nazar, mansabdor shaxs tomonidan jinoyatga yo‘l qo‘yilgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanishi lozimligi belgilangan.

Hokimiyat harakatsizligi jinoyatining subyekti 18 yoshga to‘lgan mansabdor shaxs bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida xulosa qilingan.

Mazkur dissertatsiyada hokimiyat harakatsizligi faqat to‘g‘ri qasd shaklida bo‘lishi mumkin va mansabdor shaxs uning ijtimoiy xavfliligini angelaydi hamda kelib chiqishiga yo‘l qo‘yadi. Kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatga nisbatan esa aybning har to‘rt xil munosabatlarida bo‘lishi mumkinligi tahlil qilingan. Jumladan, mansabdor shaxs kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatni xohlab (to‘g‘ri qasd) yoki xohlamasada ongli ravishda yo‘l qo‘yadi (egri qasd) yoxud xomxayollik bilan bunday oqibatlarning oldini olaman deb o‘ylaydi (jinoyat o‘z-o‘ziga ishonish). Shu bilan birga, shaxs bunday oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish imkoniyatlariga ega bo‘lsa-da, lekin anglamaydi (jinoiy beparvolik). Shuningdek, unda hokimiyat harakatsizligi jinoyatining motivi turli shakllarda bo‘lishi mumkinligi, ammo jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ular zaruriy belgi sifatida e‘tirof etilmasligi xulosa qilingan.

Dissertant tomonidan hokimiyat harakatsizligi jinoyati:

davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog‘liq davlat apparatining normal faoliyatini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar va bu munosabatlarda ayrim fuqarolarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladi;

hokimiyat harakatsizligi jinoyatining subyektiv tomoni to‘g‘ri qasdda ifodalanadi;

hokimiyat harakatsizligi jinoyatining zaruriy belgisi bo‘lgan “jiddiy ziyon” tushunchasi aynan qanday oqibatlarni qamrab olishi haqida rasmiy izohning mavjud emasligining o‘ziyoq korrupsiyaviy xavfni yuzaga keltirishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotchining qayd qilishicha, “jiddiy ziyon” baholanadigan tushuncha bo‘lganligi bois, uni rasmiy jihatdan miqdoriy ko‘rsatkichlarda ifodalash mushkul va u faqat moddiy ziyondan iborat deb qaralmasligi lozim. Hokimiyat harakatsizligi jinoyatining oqibatini aniqlashda moddiy ziyonning hajmi, jabrlanuvchining ijtimoiy ahvoli, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini poymol bo‘lishi va shunga o‘xshash omillarni inobatga olish zarur, chunki ularning yig‘indisi fuqarolarning yoki davlat yoxud jamoaning huquqlari va qonuniy manfaatlariga yetkazilgan zararining jiddiyligidan guvohlik berishini keltirib o‘tgan.

Zararning jiddiyliги fuqarolarning yoki davlat yoxud jamoaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini poymol qilish hamda davlat hokimiyati tegishli idoralarning nufuzi va ishonchining pasayish darajasi bilan aniqlanishi mumkin. Yetkazilgan zararning jiddiyliги davlat tashkilotlari, muassasalari, korxonalari, jamoat birlashmalari kabilar faoliyatidagi boshboshdoqlikda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Dissertant jiddiy ziyonni aniqlashning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi, ya’ni: *moddiy va moddiy bo‘lmagan ziyon*. Moddiy xususiyatga ega bo‘lgan jiddiy ziyon ham o‘z tuzilishiga ko‘ra: a) mulkiy (aniq keltirilgan ziyon va boy berilgan foyda); b) shaxsiy (jismoniy ziyon – hech bo‘lmaganda bitta jabrlanuvchining sog‘lig‘iga yengil yoki o‘rtacha og‘irlikdagi shikast yetkazilganligi); d) tashkiliy ziyonlarga (ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi, tashkilotning to‘g‘ri ishlash faoliyatini jiddiy ravishda buzilganligi) bo‘linadi.

Moddiy bo‘lmagan jiddiy ziyonga fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan asosiy huquq va erkinliklari buzilishini, unga nisbatan ma’naviy zarar yetishini tushunish kerak. Yetkazilgan ziyon jiddiy bo‘lmagan bo‘lsa, mansabdor shaxsning qilmishida hokimiyat harakatsizligi jinoyati uchun javobgarlik istisno qilinadi.

Dissertant tomonidan hokimiyat harakatsizligi jinoyatining kvalifikatsiyasida quyidagilarga ahamiyat qaratish lozimligi ko‘rsatilgan:

birinchidan, mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilgan xizmat vazifalari tufayli sodir etishi lozim bo‘lgan va sodir etishi mumkin bo‘lgan harakatlarni jinoyat sodir etishga yo‘l qo‘ymaslik bilan bog‘liq holda bajarmasligi;

ikkinchidan, xuddi shunday harakatsizlik fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga yoki jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa.

Dissertant tomonidan hokimiyat harakatsizligi jinoyatini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish maqsadida quyidagilarni belgilash zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan:

mansabdor shaxsning xizmat vazifalari doirasi;

mansabdor shaxsning o‘z majburiyatlari bilan tanishganligi fakti;

xizmat manfaatlariga zid ravishda bajarilmagan majburiyat va talab qilingan harakat (harakatsizlik) mansabdor shaxs tomonidan sodir etilmagan bo‘lsa;

muayyan vaziyatda ushbu harakatni amalga oshirishning obyektiv zaruriyati mavjudligi;

mansabdor shaxsning o‘ziga biriktirilgan xizmat vazifalarini amalga oshirishning real imkoniyati mavjudligi;

harakat qilish majburiyatini keltirib chiqaradigan shartning mavjudligi, agar ushbu majburiyatning bajarilishi shunday shart bilan bog‘liq bo‘lsa (masalan, tegishli majburiyat normativ hujjatda belgilangan muddat o‘tgandan keyin yuzaga keladi);

mansabdor shaxsning harakatsizligi uchun qonunda jinoiy javobgarlik belgilangan yuridik faktlardan hech bo‘lmaganda bittasining mavjudligi;

amalga oshirilishiga mansabdor shaxs qarshilik ko‘rsatmaydigan jinoiy qilmish sodir etilgan bo‘lsa;

davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sharti bo‘lgan ko‘rsatkichlarning bajarilmaganligi;

fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa yoki jiddiy ziyon yetkazilganligi.

Tadqiqotchi tomonidan tahlillar asosida hokimiyat harakatsizligi qanday holat va og'irlik darajasidan qat'i nazar, eng avvalo, inson manfaatlariga qarshi jinoiy harakat hisoblanishi va ushbu jinoyatning amalga oshirilishi, birinchi navbatda, davlat boshqaruv institutlarining umumiy qonuniy normalariga zid harakat hisoblanishi, buni sodir qilgan mansabdor shaxs davlatning boshqaruv vakolatiga ma'lum darajada egaligini hisobga olgan holda unga nisbatan javobgarlik ham shu miqyosdagi qonuniy doirada qattiq rejimda amalga oshirilishi lozimligi to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Hokimiyat harakatsizligi jinoyatining kriminologik tavsifi va unga qarshi kurashish choralarini takomillashtirish istiqbollari” deb nomlanib, unda hokimiyat harakatsizligi jinoyatining kriminologik tavsifi, jinoyatni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va imkon beruvchi shart-sharoitlar tahlili va hokimiyat harakatsizligining oldini olish choralarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Dissertant tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, hokimiyat harakatsizligi jinoyatini sodir etgan mansabdor shaxslarning kriminologik xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi: hokimiyat harakatsizligi jinoyatining 86,3 foizi erkaklar, 13,7 foizi ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi mansab lavozimlarida asosan erkaklar ishlaganligidir.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 208-moddasi bo'yicha ko'rilgan jinoyat ishlariga oid statistik ma'lumotlar 2020 – 2024-yillar kesimida tahlil qilinganida – 2020-yilda 43 ta, 2021-yilda 47 ta, 2022-yilda 77 ta, 2023-yilda 121 ta, 2024- yilning 10 oyi davomida 62 ta jinoyat sodir etilgan. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 167, 205, 206, 209, 210-moddalariga hokimiyat harakatsizligi, ya'ni 208-modda qo'shimcha modda sifatida ko'rilgan jinoyat ishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar 2020 – 2024-yillar kesimida tahlil qilinganida – 2020-yilda 283 ta, 2021-yilda 267 ta, 2022-yilda 306 ta, 2023-yilda 281 ta, 2024-yilning 10 oyi davomida 187 ta jinoyat sodir etilgan.

Shu bois bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvida, jumladan, mansabdor shaxslarni tayinlashda gender tenglik prinsiplariga rioya qilish choralari ko'rilmogda. 2018 – 2023-yillarda mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslarning 95 foizi oliy ma'lumotli, 4 foizi o'rta maxsus ma'lumotli, 1 foizi o'rta ma'lumotli ekanligi aniqlangan. Ushbu ko'rsatkich ham O'zbekistonda mansabdor shaxslarning oliy ma'lumotli bo'lishi kerakligi talabi bilan bog'liqdir. Ushbu jinoyatlarning 78 foizi oliy ma'lumotlilar tomonidan sodir etilgan.

O'zbekistonda ma'lum vakolatlarga ega bo'lgan mansabdor shaxslar ko'pincha ularni o'z manfaatlarini yoki boshqa shaxsiy maqsadlari yo'lida xizmat vazifalarini qasddan bajarmaslikka oid qilmishlari ortib bormogda. Jumladan, o'tkazilgan so'rovnomada respondentlarning 73 foizi hokimiyat harakatsizligiga shaxsan duch kelganligi, 25 foizi esa – shaxsan qurboni bo'lmagan bo'lsa-da, yaqinlari va tanishlaridan eshitganligi yoki bunday holatlarga guvoh bo'lganligi

aniqlandi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 208-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini o'rganish o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatgan.

Dissertatsiya ishida hokimiyat harakatsizligi jinoyatining sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar quyidagilar ekanligi ko'rsatib o'tilgan: *birinchidan*, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqqligi va shaffofligi yetarli darajada emasligi; *ikkinchidan*, qonun normalarining lozim darajada takomillashtirilmaganligi; *uchinchidan*, hokimiyat harakatsizligini belgilovchi tashkiliy-boshqaruv omillar, ya'ni vakant davlat lavozimlarini band etishga tanlovlarning kamligi, mansabdor shaxslar ustidan samarali moliyaviy va boshqa nazoratning mavjud emasligi, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari faoliyatining samarali emasligi hamda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi, *to'rtinchidan*, hokimiyat harakatsizligi jinoyatini belgilovchi tarbiyaviy omillar: fuqarolik jamiyati siyosiy madaniyatining shakllanmaganligi. Bu, avvalo, saylov jarayonida aks etadi: saylovchilarning bir qismi o'z ovozlari oz miqdordagi pul summalari yoki moddiy qimmatliklar evaziga beradilar, ta'lim tizimida yosh avlodni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash tizimining mavjud emasligi yoki yaxshi yo'lga qo'yilmagani, ommaviy axborot vositalari tomonidan aholida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishga e'tibor berilmayotganligi.

